

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikatsiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanish marra-lari.....	132
M.Kenjaye-va	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 94(575.1)"18/19":338.43

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHlarIDA FARG'ONA VILOYATIDA PAXTACHILIK VA PAXTA YAKKAHOKIMLIGINING VUJUDGA KELISHI

ХЛОПКОВОДСТВО И ФОРМИРОВАНИЯ ХЛОПКОВЫЙ МОНОКУЛЬТУРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ КОНЦА XIX НАЧАЛО - XX ВЕКА

COTTON GROWING AND COTTON SOLOISM IN THE FERGANA REGION AT THE END OF THE XIX - BEGINNING OF THE XX CENTURIES OCCURRENCE

Abdug'affor Sharafiddinov 

Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada Sankt-Peterburg hamda mahalliy arxiv xujjatlari va boshqa tarixiy manbalar asosida bosib olingandan keyin Farg'ona viloyatida paxtachilikni rivojlantirish uchun mustamlaka ma'murlar tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar, dehqonlarning ahvoli, paxta yakka hokimligiga asos solinishi va oqibatlarini ochib berishga harakat qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются меры, предпринятые колониальными властями для развития хлопководства в Ферганской области после оккупации на основе документов из Санкт-Петербурга, местных архивов и других исторических источников. Также была предпринята попытка раскрыть изменения в сельском хозяйстве, положение крестьян, основание и последствия хлопкового единоличного правления.

Abstract

The article reflects on the measures taken by colonial authorities to develop cotton farming in the Fergana region after the occupation of St. Petersburg and on the basis of local archival documents and other historical sources. Attempts have also been made to uncover changes in agriculture, the plight of farmers, the foundation and consequences of cotton solitary confinement.

Kalit so'zlar: Paxtachilik, Rossiya imperiyasi, Amerika paxta navi, tajriba uchastkasi, king, upland, russel's, florida, desyatina, mahalliy paxta navi, desyatina, uezd, madaniy o'g'itlar, plantaçuya, plug, volost, rekonstruksiya, artezian, gubernator, mahalliy burjuaziya.

Ключевые слова: Хлопководство, Российская империя, американский сорт хлопка, опытный участок, Кинг, апленд, Рассел, Флорида, десятина, местный сорт хлопка, десятина, уезд, культурные удобрения, плантация, пробка, волость, реконструкция, артезианский, губернатор, местная буржуазия.

Key words: Cotton farming, Russian Empire, American cotton variety, experimental plot, king, upland, Russel's, florida, desyatina, local cotton variety, desyatina, uezd, cultural fertilizers, plantation, plough, volost, reconstruction, Artesian, Governor, local bourgeoisie.

KIRISH

Ma'lumki, O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olish jarayoni XVI asrdan boshlangan bo'lib, XVIII asrning boshlaridan muntazam rejali tus oldi. Podsho Rossiyasi hukumatining iqtisodiy jihatdan, ayniqsa, zamonaviy sanoatni rivojlantirish borasida boshqa kapitalistik mamlakatlardan orqada qolishi, xom ashyoga bo'lgan talab ehtiyojining nihoyatda kuchliligi, o'z navbatida XIX asrning o'rtalaridan o'lkamizni bosib olish, uning bebaho boyliklarini tashib ketish, o'zlashtirish ishini tezroq amalga oshirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi.

1847-yilda Sirdaryoning quyi qismida Orol harbiy qal'asi barpo etilgandan keyin bevosita bu ishga kirishildi va 1864-yilda Turkiston, Avliyo ota, Chimkent, 1865-yilda Toshkent, 1868-yilda Samarqand, 1876-yilda Qo'qon xonligi, 1884-yilda Marv Rus hukumati qo'l ostiga o'tdi. Shunday qilib, 1864-1885 yillar davomida O'rta Osiyo xalqlari mustamlaka asoratiga tushdilar.

Podsho hukumatining O'rta Osiyoni zabt etishi, o'zining iqtisodiy hamda siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun qilgan harakatlari o'lkada paxtachilikni tez sur'atlar bilan rivojlantirishni talab qilar edi. Rus savdogarlari uchun Turkistondan paxta sotib olishning afzalliklari tobora ko'proq ko'rina boshladi. Mahalliy boylar, amaldorlar hamda shakllanib kelayotgan quloqlar endi asosiy

TARIX

e'tiborni paxta etishtirishga qarata boshladilar, zero paxtadan keladigan boylik ularning ishtahasini ochib yuborgan edi. Bunday hol esa o'lkamiz tabiiy holatiga, o'simliklar, meva-sabzavot etishtirish darajasi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Rossiya imperiyasi tobora o'sib borayotgan sanoatning paxtaga bo'lgan ehtiyojini qoniqtirish maqsadida Turkistonda paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan choralarni amalga oshirib bordi. Bu sohada ayniqsa, Farg'ona vodiysida o'zbek paxtasini rus to'qimachilik sanoatining talablariga moslashtirish va daromadni oshirishni ko'zlab, Amerika paxta navini o'lkada iqlimlashtirishga harakat qilganlar. Farg'onada, 1879-yilda birinchi marta yangi navlar Namanganning Chust qishlog'ida ekib ko'rildi. Biroq birinchi tajriba ijobiy natija bermadi. Chunki ekilgan paxta navlari (seya island) serhosil bo'lsa-da, kech pishar edi. [11.19.20]

1990-yilga kelib, Chust ezdida ko'rgazmali tajriba uchastkasi tashkil etilib, paxtaning 20 dan ortiq amerika navlari (king, upland, triumph, russels, florida) sinab ko'rildi. Bulardan upland va king navlari Farg'onaning ob-havosiga mosligi, mahalliy paxta navlariga nisbatan serhosil ekanligi aniqlandi. Tajriba uchastkasida ekilgan mahalliy paxta navlari o'rtacha har desyatinadan 35-40 pud, amerika navlaridan esa 70-75 pud hosil olindi. Yangi paxta navlarini mahalliy paxta navlariga nisbatan afzalligi aholi o'rtasida targ'ibot qilina boshlandi. Lekin dehqonlar bu yangilikka dastlab shubha bilan qaradilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dehqonlarni qoniqtirmagan asosiy sabablardan biri, Amerika paxtasini qo'l chig'irig'i bilan tozalashda chigitning toza ajralmasligi edi. Rus ma'muriyati, sanoat egalari, firmalar paxtani chigiti bilan sotib olishga va'da berdilar. Bundan tashqari, 1880-yildan 1884-yilgacha yangi nav paxta urug'larini ommalashguncha bepul tarqatib turdilar. [6.287]

1884-yildan boshlab, Amerika paxtasiga boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan engil soliq solinadigan bo'ldi. O'lkada qishloq xo'jalik ekinlarining bir desyatinasidan olinadigan o'rtacha daromad makkajo'xoridan -36, lalmikor bug'doydan -21, sug'oriladigan bug'doydan -41, bedadan -80, paxtadan esa 100-200 so'mga teng edi. Lekin ulardan olinadigan soliqlar bir xil bo'ldi. Amerika navlarini rivojlantirishda tashkil etilgan urug'chilik va ko'rgazmali tajriba uchastkalari katta rol o'ynadi. 1880-1900 yillar ichida Namangan uezdida Ko'l, Chust, Qizil Ravotda, Andijon ezdida Jalolobod, Oyim, Amirbek, Marg'ilon uezdida Kirmachi, Arabmazor, Qo'qon uezdida Ultarma kabi agoronomiya tajriba platansiyalari tashkil etilgan edi. [12.12]

Ushbu tajriba stansiyalari aholi o'rtasida yangi paxta navlarining afzalligini tashviqot qilish, paxta maydonlarini o'g'itlashning yangi metodlarini aholiga etkazish hamda qishloq xo'jalik texnika vositalarini joriy etishni vazifa qilib qo'ygan edi.

Amerika navlari ustidan olib borilgan birinchi muvofaqiyatli tajribalar natijasida vodiyni hamma rayonlari da qisqa vaqt ichida amerika navi ekila boshladi. Masalan, 1885-yilda 1000 desyatina, 1886-yilda 12000 desyatina, 1887-yilga kelganda 13200 desyatina erga yangi nav paxta ekildi. [9.2]

Amerika paxta navi ekilgan maydonlar yildan-yilga ortib borgan. Farg'ona viloyatida 1888-yilda hammasi bo'lib 14100 desyatina maydonga amerika navli paxta ekilgan bo'lsa, 1911-yilga kelib bu ko'rsatkich 244705 desyatina ga etgan yoki viloyat miqyosida 23 yil ichida Amerika navli paxta ekilayotgan maydonlar hajmi salkam 17,5 barobarga ortgan. [8.1888-1911]

Ta'kidlash lozimki, katta – katta daraxtzorlar, mevali bog'lar, sabzavot, meva maydonlari o'rnini paxta egallab, aholi mehnati og'irlashib, qashshoqlashib keta boshladi.

Farg'ona viloyatida Amerika paxta navi maydonlari tobora kengayib borgan. Yangi paxta navli maydonlarining o'sib borishi mahalliy navli paxta maydonlari qisqarishiga sabab bo'lgan. 1888 yilda mahalliy navli paxta maydoni 19661 desyatini tashkil etgan bo'lsa, 1911-yilga kelib 12840 desyatini tashkil etgan. [7.345-346]

XIX asrning 90-yillari oxirida rus mutaxassislari madaniy o'g'itlar-superfosfat, azot, fosfordan foydalanishning progressiv metodlari va ahamiyatini mahalliy aholiga ko'rsatib, bu sohadagi tajribalarni omma orasiga yoya boshladilar. Namunali urug'lik etkazuvchi plantaqiyalarni tashkil etish vodiya paxta sifatini yaxshilash sohasida qilingan muhim ishlardan biri bo'ldi. Mazkur plantaqiyalarda paxta urug'larini yaxshilash sohasida katta ishlar olib bordilar.

Ilgarigidek g'alla ekinlari kabi qo'l bilan sochib emas, balki egat usulida ekish yo'li bilan paxta oralariga ishlov berishni osonlashtirish yo'llari joriy etila boshlandi. Egat usulida ekish yangi

progressiv metod bo'lib, u xo'kiz, ot qo'shlari va turli qishloq xo'jalik texnikalari yordamida ishlashga yo'l ochildi.

Yangi qishloq xo'jalik texnikalari, ayniqsa, plug bilan xaydalib ekilgan paxtadan omoch bilan haydalib ekilgan paxtaga nisbatan bir necha marta ortiq hosil olingan. [10.13-14]

Masalan, 1898-yili Namangan paxtachilik uchastkasida plug bilan ishlov berilgan har bir desyatina erdan 110 pud, omoch bilan ekilgan har bir desyatina erdan esa o'rtacha 55-60 pud hosil olingan. 90-yillarning oxiriga kelib upland, ko'k chigit, king kabi paxta navlaridan 75-80 puddan hosil olinib boshladi. Bu navlar sifatli bo'lishi bilan birga vaqtida pishib etiladi. Farg'onadagi ba'zi rayonlar, chunonchi, Andijon uездining Asaka, Qorasuv, Oyim; Marg'ilon uездining Quva, Yakkatut, Oltiariq; Namangan uездining Chust, To'raqo'rg'on kabi volost dehqonlari erlarga ishlov berish, texnika va o'g'itlarning progressiv metodlaridan foydalanish natijasida o'rtacha bir desyatina erdan 70-75 pud alohida uchastkalardan 100-115 pud hosil ola boshladilar. 1880-1890-yillar ichida Farg'ona viloyati bo'yicha umumiy o'rtacha hosil 50-55 pudga etdi. [13.9]

Paxtachilikning tobora keng quloch yoyishi butun o'lkaning, jumladan Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlar yasadi. XIX asrning oxirlarida O'zbekistonda bo'lgan dehqonchilik departamentining vakili V.I.Masalskiy taassurotlari haqida quyidagilarni bayon etgan edi. "O'tgan qisqa vaqt ichida Turkistonda paxtachilik sohasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi: paxtachilik bilan maxsus shug'ullanuvchi korxona egalari paydo bo'ldi, o'lka sharoitiga mos tushadigan "amerika" navi iqlimlashtirildi, jinlar keltirildi va paxta tozalash zavodlari qurildi, takomillashgan dehqonchilik qurollari joriy etildi. Paxta savdosi tartibga solindi, paxta bilan ish yurituvchi yirik firmalar paydo bo'ldi, paxtani toylash va transport usullari yaxshilandi. xullas, nisbatan oz va sifaqiz oddiy paxta ishlab chiqarish rivojlanib, minglab kishilarni qamrab olgan, yuz minglab kishilarni oziq-ovqat bilan ta'minlaydigan va bir necha million so'm oborotini o'z ichiga olgan ulkan ishga aylandi.

Rus plantaçiyalari va korxona egalari o'lkaga kelgan vaqtlarida paxta etishtirish usullarini mahalliy aholidan o'rganishlari turgan gap edi". [2.26]

Paxtachilikning rivojlanish yo'liga o'tishi va undan olinayotgan daromadlar sanoat egalari, savdogarlar, amaldorlar, hatto ofitserlarni ham shoshirib qo'ydi. Mablag'i bo'lgan har bir kishi paxta plantaçiyasini tashkil etib, o'z boyligini orttirish payiga tushdi. Rossiyaning turli joylaridan Turkiston hukumati nomiga paxta plantaçiyalari uchun er ajratib berilishi haqida xatlar kelib turdi. Natijada bir qancha rus paxta plantaçiyalari vujudga kelib, "amerika" paxta navlari etishtirildi.

Masalan, Farg'ona viloyatida rus paxta plantaçiyalarining hammasi 500 desyatina erda paxta etishtirgan. Shundan 100 desyatina Namanganda, 280 desyatina Andijonda, 20 desyatina Qo'qonda va 80 desyatina Marg'ilonda joylashgan edi.

Quyidagi keltirilgan jadvalda 1896 yilda yirik paxta etishtiruvchi viloyatga aylangan Farg'ona viloyati ezdlarida paxta etishtirish holatini ko'rish mumkin. [5.210]

Uezdlar	"Amerika" navli paxta ekilgan erlar	Mahalliy paxta ekilgan erlar	"Amerika" navli paxtadan olingan hosil	Mahalliy paxta navidan olingan hosil
	(Desyatina hisobida)	(Desyatina hisobida)	(Pud hisobida)	(Pud hisobida)
Marg'ilon	70180	5753	3509200	64 475
Qo'qon	13090	6520	846 950	252 100
Andijon	47150	870	121 720	33 060
O'sh	2448	355	103 974	6 922
Namangan	22700	1348	1 414 171	48 900

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Marg'ilon ezdi birinchi, Andijon va Namangan uezdlari keyingi o'rinlarda turgan.

Ma'lumki, Turkiston jumladan, Farg'ona qishloq xo'jaligi barcha tarmoqlari rivojlanishi sun'iy sug'orish ishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, paxtaning serhosil bo'lishi, paxta maydonini kengaytirish, quriq erlar o'zlashtirish va bu erlarni yangi paxta maydoniga aylantirish ishlari yangi sug'orish bazalarini vujudga keltirishni talab qiladi. Rus injener, geolog-irrigatorlari Sirdaryo, Qoradaryo, Norin daryolari atroflarida yangi kanallar qurish sohasida katta qiduruv ishlarini olib

TARIX

bordilar. Masalan, 1888-yilning may oyida "Ulug'nor" kanali Jilin boshchiligidagi geolog-irrigatorlar tomonidan to'liq o'rganishga kirishildi va uning sug'orish imkoniyatlari kengaytirildi. Kanal rekonstruksiya qilinishi natijasida xonlik davrida 70 desyatina erni sug'orish mumkin bo'lgan bo'lsa, endi 200-220 desyatina erni sug'orish imkoniyatiga ega bo'ldi. Farg'ona vodiysidagi eski ariqlar kengaytirildi. Norin, Sirdaryo va Qoradaryo bo'ylariga nasoslar o'rnatildi, artezian suvlaridan foydalanish tavsiya etildi.

XIX asrning oxirlarida Farg'ona tarixida birinchi marta motorlar yordamida daryolardan suv chiqarish va shu asosda quriq erlarni o'zlashtirish sohasida muhim ishlar qilindi. Turkistonda bunday nasoslar 99 ta bo'lib 78 tasi Farg'ona viloyatiga joylashtirilgan edi.

Yuqoridagi faktlar shuni ko'rsatib turibdiki, hokimiyat yangi erlarni o'zlashtirish va paxta maydonlarini kamaytirishga harakat qilgan. Lekin, irrigatsiya sohasidagi o'zgarishlar Farg'ona xalqlarining asrlar davomida suvga bo'lgan talabini qondira olmadi. Oz bo'lsa ham amalga oshirilgan tadbir-choralar Farg'ona vodiysida paxtachilikning o'sishiga olib keldi.

Natijada, Farg'ona viloyati XIX asrning 90-yillari oxirlariga kelib, Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi. U Turkiston viloyatlari ichida Rossiyaga paxta xomashyosini etkazib berishda salmoqli o'rinni egalladi.

Farg'onaning yalpi paxta xomashyosi 10 yil ichida Sirdaryo va Kaspiy orti viloyatlariga nisbatan 52 marta, Samarqand viloyatiga nisbatan 21 marta ortiq o'sgan. XIX asrning oxirlarida Rossiyaning to'qimachilik sanoatiga o'rtacha har yili 19800000 pud paxta sarflangan bo'lsa, shundan 8800000 pud paxtani Turkiston o'lkasi etkazib berardi. [3.164] Farg'ona viloyati esa Turkiston paxtasining 75-80 foizini tashkil etgan. Paxtachilikning eng rivojlangan davri 1915-yilga to'g'ri keladi. Bu vaqtda paxta yaroqli barcha erlarda ekilgan. Shu yili viloyatda 336525 desyatina erga paxta ekilgan. Boshqa ekinlarga solishtirganda paxtaning tutgan o'ri yanada oydinlashadi: bug'doy 317762, sholi 14117, tariq 9626, makkajo'kori 46084, suli 2410, beda 63053, kanop va kunjut 2790 desyatina erga ekilgan. Demak, paxta sug'oriladigan umumiy er maydonining yarmiga yaqin qismini qoplagan.

Paxta maydonlarining donli ekinlar hisobiga o'sib borishi paxtakor dehqonning donga bo'lgan muhtojligini oshirib yubordi. Tashqaridan Farg'onaga keltirilgan don aholi ehtiyojlarini qondira olmadi. Natijada oziq-ovqat bahosi oshib bordi, 1890-yildan 1894-yilgacha bir pud g'allaning narxi 2-5 marta, paxtaning narxi 1 so'm 60 tiyindan 3 so'm 50 tiyingacha o'sgan bo'lsa, 1893-1896-yillarda Farg'onada bir pud bug'doyning narxi 16 so'm, arpa 11 so'm 20 tiyin, makkajo'xori 13 so'm 40 tiyinga etdi, xuddi shu vaqtning o'zida bir pud paxtaning narxi 7 so'm 20 tiyinni tashkil etar edi. Shu bois, 1901-yil 19 aprelda "Zakaspiyskoe obozrenie" gazetasi "Andijonda dahshatli qahatchilik bo'lishi shak-shubhasizdir...", - deb yozgan edi. Manbada: "Bunday qimmatchilikda paxtakor dehqon qorni to'yib ovqat emaydi, etishmovchilik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin", - deb qayd etilgan. [14.4-7] Farg'ona harbiy gubernatori 1901-yilda Turkiston general-gubernatoriga bergan hisobotida "Paxtachilikning rivojlanishi oblastda donli ekin maydonlarini qisqartirib yubordi, aholining donga muhtojligi o'sib boryapti", - deb yozgan edi.

Demak, paxtachilikning o'sishi dehqonlarning hayotini yaxshilamadi. Rus moliyaviy kapitali fermerlar, mahalliy burjuaziya orqali paxta sotib olish va sotish ishlari ustidan to'la nazorat o'rnatdi. Natijada paxtakor dehqon paxtani bozordagi narx qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yuqoridagi mahalliy boylar taklif qilgan narxdan ortiqcha sota olmas edilar. Fermerlar va boshqa ekspluatator doiralar, o'z navbatida, dehqonlarga qarzni kelgusi hosil hisobiga katta foiz bilan berar edilar.

Dehqonlarga kelgusi paxta hosili ustidan kredit berish kapital jam'arish manbai, ekspluatatsiya vositasigina bo'lib qolmasdan, balki mahalliy boy-quloqlarning yaxshi erlarni o'z qo'llarida konsentratsiya qilish quroliga ham aylandi. S.Ponyatovskiy bu haqda shunday yozadi: "Kelgusida paxta hosili uchun dehqonga kredit berish shu xo'jalikni kelajakda xonavayron qilish demakdir". [15.2-3]

Paxtachilik komiteti paxta sotib olishning bunday formasini o'z dokladnomasida quyidagicha tasvirlaydi: "Hosil bo'lmay qolgan taqdirda qarzlarni kelgusi yilga ko'chiriladi, kelgusi yilda qarzning foizi oshadi va oqibatda bechora dehqonning ahvoli erni sotish bilan tugallanadi". Umuman olganda, 1901-yilda Farg'onada 30 foizga yaqin paxtachilik xo'jaliklari garovga qo'yilgan. Natijada 1903-yilga kelib Farg'ona viloyatidagi paxtachilik xo'jaligining deyarli yarmi xonavayron bo'lgan.

Dehqonlarning xonavayron bo'lishi ayniqsa, hosilsiz va ocharchilik (1878, 1880, 1892, 1893 va 1896) yillari tezlasha boradi. A.Middendorf Farg'onadagi qashshoqlikni ko'rib, "Bu erdagi ochlik,

qashshoqlik, dehqonlarning ayanchli ahvoriga nazar tashlaganda, Yevropadagi ochlikni ochlik qatoriga qo'shmasa ham bo'lar ekan", - degan xulosaga keladi.

Qishloqlarda yildan-yilga ersizlar soni ko'payib bordi: ersiz dehqonlar shaharlarga ish axtarib borib, mahalliy ishchilar safini to'ldirdilar. 1880-1900 yillar ichida faqat Marg'ilon ezdida chorikorlar 62,3 foiz, mardikorlar 25,9 foizni, Andijon ezdining qishloqlarida ersizlar 60 foizni tashkil etgan. Farg'onaning ba'zi rayonlarida ersizlik 40-45 foizga etgan. [4.321]

Shunday qilib, paxtachilikning rivojlanishi asosida iqtisodiyotda, qishloq xo'jalik texnikasida, ijtimoiy munosabatlarda ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Tovar-pul munosabatlari xo'jalikning hamma sohalariga kirib bordi va qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlar paydo bo'la boshladi. Bu esa, o'z navbatida sinfiy kurashni keskinlashtirdi. Biroq paxtachilik izchil va keng ravishda rivojlanmadi. Bunda Podsho Rossiyasining mustamlakachilik siyosati va milliy zulmi sabab bo'ldi. Qishloq xo'jaligida hamon feodal munosabatlar hukmronlik qilar edi. Paxta rus kapitalistlari va mahalliy boylarga katta daromad keltirgan bo'lsa, paxtakor dehqonlarning iqtisodiy ahvolini tobora og'irlashtirdi.

XULOSA

Shunday qilib, Turkiston Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng bu o'lkada kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllanib borishiga qaramasdan, er-suv masalasi to'liq hal etilmadi va bundan ekspluatatorlarning o'zlari ham birinchi navbatda manfaatdor emas edilar. Chor hukumatining o'lkada olib borgan agrar siyosatidan ko'zlagan bosh maqsadi – mahalliy aholini qattiq ezish evaziga imkoni boricha ko'proq boylikni Rossiyaga tashib ketish, Turkistonni esa o'zining xom ashyo bazasiga aylantirishdan iborat edi. Ular o'zlarining bu maqsadlariga erishdilar. Katta-katta bog'-rog'lar buzib tashlanib, ular o'miga Rossiya sanoati uchun nihoyatda zarur va arzon o'zbek paxtasi ekila boshlandi. Shu yo'l bilan paxta monokulturas (yakka xokimligi) o'rnatila boshlandi, o'lkaning Podsho Rossiyasiga qaramligi esa kuchaya bordi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азиатская Россия. Т.2. – СПб., 1914-381 с.
2. Масальский В.И. Хлопковые дела в Средней Азии и его будущее. – СПб., 1892. – 280 с.
3. Сборник сведений о Средней Азии и русском Туркестане. – Т.: 1888. – 280 с.
4. Понятовский С. Опыт изучения хлопководства в Туркестане и Закаспийской области. – СПб., 1913-380 с.
5. Федеров А.П. Хлопководство в Средней Азии. – Петербург, 1898-210с.
6. Туркестанское сельское хозяйство. 1906, №4.
7. Туркестанское сельское хозяйство. 1903, №12.
8. Обзоры Ферганской области и Статистический обзор Ферганской области за 1888-1911 гг.
9. Санкт-Петербург МДА, 404-фонд, 1-руйхат, 6-иш.
10. Санкт-Петербург МДА, 404-фонд, 1-руйхат, 20-иш.
11. ЎзР МДА, 10-фонд, 15-руйхат, 690-иш.
12. ЎзР МДА, 19-фонд, 15-руйхат, 92-иш.
13. ЎзР МДА, 1-фонд, 17-руйхат, 97-иш.
14. ЎзР МДА, 1-фонд, 12-руйхат, 32-иш.
15. ЎзР МДА, 1-фонд, 27-руйхат, 93-иш.